

FORS VA O‘ZBEK TILLARIDA YO‘NALISH VA O‘RIN-PAYT MA‘NOLI RAVISHLARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Allamberganova Nafisa Ulug ‘bek qizi

TDSHU Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi

Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fors va o‘zbek tillarida yo‘nalish hamda o‘rin-payt ma‘noli ravishlarning struktur xususiyatlari qiyosiy-tipologik aspektda tahlil qilinadi. Ikkala tildagi ravishlarning morfologik tarkibi, yasalish usullari, sintaktik vazifalari va semantik xususiyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot davomida fors tilidagi ravish yasovchi qo‘shimchalar tizimi va o‘zbek tilidagi mos korsatkichlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi. Maqola tilshunoslik, qiyosiy grammatika va areal tilshunoslik sohalari bo‘yicha mutaxassislarga, shuningdek, magistratura va doktorantura talabalariga mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: ravish, yo‘nalish ravishi, o‘rin-payt ravishi, fors tili, o‘zbek tili, qiyosiy tilshunoslik, struktur xususiyatlar, morfologik tahlil.

Аннотация: В данной статье в сравнительно-типологическом аспекте анализируются структурные особенности наречий со значением направления и места-времени в персидском и узбекском языках. Исследуются морфологический состав, способы словообразования, синтаксические функции и семантические особенности наречий в обоих языках. В ходе исследования выявляются сходства и различия между системой наречных аффиксов в персидском языке и соответствующими показателями в узбекском языке. Статья предназначена для специалистов в области лингвистики, сравнительной грамматики и ареальной лингвистики, а также для студентов магистратуры и докторантуры.

Ключевые слова: наречие, наречие направления, наречие места-времени, персидский язык, узбекский язык, сравнительное языкознание, структурные особенности, морфологический анализ.

Kirish. Zamonaviy qiyosiy tilshunoslik turli til oilalariga mansub tillarning grammatik kategoriyalarini o'rganishda muhim yutuqlarga erishmoqda. Fors tili hind-yevropa tillari oilasining eron guruhiga, o'zbek tili esa turkiy tillarga mansub bo'lishiga qaramay, ushbu ikki til o'rtasida uzoq tarixiy aloqalar mavjud bo'lib, bu leksik, semantik va qisman grammatik darajalarda o'z aksini topgan.

Ravishlar so'z turkumi sifatida harakat, holat, belgi va sifatning turli xususiyatlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, yo'nalish ravishlarining vazifasi harakatning qaysi tomonga yo'nalganini, o'rin-payt ravishlarining vazifasi esa voqea-hodisaning qayerda va qachon sodir bo'lishini bildirish hisoblanadi. Bu ikki turdagi ravishlarning struktur xususiyatlarini qiyosiy o'rganish ikkala tilning grammatik tizimini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, fors va o'zbek tillarining o'zaro ta'siri va munosabatlarini o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy tarjimashunoslik, leksikografiya va chet tillarini o'qitish metodikasi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu sohada qiyosiy-tipologik tadqiqotlar nisbatan kam o'tkazilganligini hisobga olsak, maqola ilmiy yangilik sifatida e'tiborga loyiqdir.

Fors tili grammatikasi bo'yicha A. Lambton, G. Lazard va M. Mahootian kabi olimlarning tadqiqotlari ravishlarning tasnifi va struktur xususiyatlariga oid muhim ma'lumotlar beradi. O'zbek tili grammatikasida esa A. G'ulomov, A. Hojiyev va M. Mirtojyev ravish kategoriyasini atroflicha tahlil etishgan. Qiyosiy aspektda esa N. Mahmudovning turkiy va eron tillari o'rtasidagi grammatik munosabatlarga bag'ishlangan ishlari alohida o'rin tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-tipologik tahlil, distributiv tahlil va transformatsion usullardan foydalanildi. Material sifatida zamonaviy fors va o'zbek tilidagi badiiy adabiyot, publitsistika hamda so'zlashuv tili namunalari xizmat qildi.

Yo‘nalish ravishlari

Fors tilida yo‘nalish ma‘nosini ifodalovchi ravishlar asosan uch struktur turga bo‘linadi: oddiy (sodda) ravishlar, yasama ravishlar va murakkab (tarkibli) ravishlar. Oddiy ravishlar qatoriga بالا (bolo – yuqoriga), پايين (poyin – pastga), جلو (jelo – oldinga), عقب (aqab – orqaga) singari so‘zlar kiradi. Bu ravishlar tarixan ko‘plab hind-yevropa tillari bilan umumiy ildizga ega bo‘lib, hozirgi kunda mustaqil leksik birlik sifatida qo‘llanadi.

Yasama yo‘nalish ravishlarida به (be-) old qo‘shimchasi yetakchi o‘rin egallaydi. Masalan: به جلو (bejelo – oldinga qarab), به عقب (beaqab – orqaga qarab). Bundan tashqari, سوی به (besuye – tomonga) konstruktsiyasi ot bilan birikib yo‘nalish ifodalaydi: خانه سوی به (besuye xone – uyga tomonga). Bu xususiyat o‘zbek tilidagi –ga, –qa kelishigi bilan funksional jihatdan o‘xshashlik kasb etadi.

Murakkab yo‘nalish ravishlari ko‘pincha ot yoki sifat bilan qo‘shimcha birikmasidan tashkil topadi: پیش از (az pish – oldindan), پیش به (be pish – oldinga qarab), پس به (be pas – keyinga). Bu holatda fors tilida so‘z tartibi muhim rol o‘ynaydi, chunki ravish odatda fe‘ldan oldin keladi.

O‘zbek tilida yo‘nalish ravishlarining struktur xususiyatlari asosan agglutinativ morfologiya tamoyiliga asoslanadi. Sodda yo‘nalish ravishlari: oldinga, orqaga, yuqoriga, pastga, ichkariga, tashqariga kabi so‘zlar bu turkumga kiradi. Ushbu ravishlarning tarkibida yo‘nalish ma‘nosini mustahkamlovchi –ga kelishigi morfemasi tarixan so‘rilib ketgan bo‘lib, hozirgi kunda leksikallashgan shaklda mavjud.

O‘zbek tilidagi ravish yasashida –ga, –qarab, –tomon qo‘shimcha va ko‘makchi so‘zlari muhim o‘rin tutadi. "Maktabga tomon", "shaharga qarab" kabi konstruktsiyalar yo‘nalish ma‘nosini aniq ifodalaydi. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi reduplikatsiya usuli ham yo‘nalish ravishlarida kuzatiladi: u yoq-bu yoq, oldi-sorti kabi shakllarda.

“طرف + به + ot” birikmasi bilan:

به طرفِ حال نگاه کردم.

Zal tarafga qaradim.

O‘zbek tili: U derazaga qarab, uzoq o‘yga toldi.

Fors tilidagi طرف + به + ot birikmasi o‘zbek tilidagi ot + -ga qarab / tarafga konstruktsiyasiga mos keladi. Fors tilida yo‘nalish ma‘nosi به old ko‘makchisi va طرف so‘zi orqali ifodalansa, o‘zbek tilida bu ma‘no -ga yo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi yoki tomon/taraf so‘zi orqali ifodalanadi.

“سمت + به +ot” birikmasi bilan:

به سمت اتاق رفتم

Xona tomonga yurdim.

O‘zbek tili: U bozor tomonga shoshilib ketdi.

Fors tilidagi سمت + به + ot birikmasi o‘zbek tilidagi ot + tomon konstruktsiyasiga mos keladi. Fors tilidagi طرف + به va سمت + به birikmalari o‘zaro sinonimik bo‘lib, ikkalasi ham yo‘nalish ma‘nosini bildiradi. O‘zbek tilida esa bu ikki konstruktsiyaning o‘rnida yagona tomon so‘zi qo‘llanadi.

O‘zbek tilida yo‘nalish ravishlarining struktur xususiyatlari asosan agglutinativ morfologiya tamoyiliga asoslanadi. Sodda yo‘nalish ravishlari: oldinga, orqaga, yuqoriga, pastga, ichkariga, tashqariga kabi so‘zlar bu turkumga kiradi. Ushbu ravishlarning tarkibida yo‘nalish ma‘nosini mustahkamlovchi –ga kelishigi morfemasi tarixan so‘rilib ketgan bo‘lib, hozirgi kunda leksikallashgan shaklda mavjud.

O‘zbek tilidagi ravish yasalishida –ga, –qarab, –tomon qo‘shimcha va ko‘makchi so‘zlari muhim o‘rin tutadi. "Maktabga tomon", "shaharga qarab" kabi konstruktsiyalar yo‘nalish ma‘nosini aniq ifodalaydi. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi reduplikatsiya usuli ham yo‘nalish ravishlarida kuzatiladi: u yoq-bu yoq, oldi-sorti kabi shakllarda.

O‘rin-payt ravishlari

Fors tilidagi o‘rin ravishlari ichida اینجا (inja – bu yerda), آنجا (onja – u yerda), همینجا (haminjo – aynan bu yerda) kabilar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu so‘zlar demonstrativ

asoslardan (این – in, آن – on) va جا (jo – joy) soʻzidan tashkil topgan tarixiy murakkab ravishlardir. Payt ravishlarida حالا (holo – hozir), دېروز (diruz – kecha), فردا (fardo – erta), همیشه (hamisha – doimo) kabi soʻzlar leksik-struktur jihatdan qiziqarli hodisalarni namoyon etadi.

Fors tilidagi oʻrin-payt ravishlarining muhim xususiyati shundan iboratki, ular koʻpincha izofiy konstruktsiya bilan birikadi. Masalan: آنجا در (dar onja – u yerda), این در وقت (dar in vaqt – bu vaqtda) konstruktsiyalarida در (dar) old koʻmakchisi oʻrin-payt munosabatlarini ifodalashda asosiy grammatik vosita vazifasini bajaradi. Bunday konstruktsiyalar oʻzbek tilidagi koʻmakchi soʻzlar tizimi bilan funksional parallel hosil qiladi.

Oʻzbek tilida oʻrin ravishlari bu yerda, u yerda, hamma yerda, hech yerda kabi shakllarda namoyon boʻladi. Bu ravishlarning tarkibida koʻrsatish olmoshi – yer soʻzi – da oʻrin-payt kelishigi kombinatsiyasi yotadi. Bunday tuzilma analitik ravishda ifodalanadigan maʼnoni morfologik jihatdan birlashtirgan holda ifodalaydi.

Payt ravishlarida esa bugun, kecha, ertaga, hozir, doimo, hamisha, baʼzan, tez-tez kabi soʻzlar oʻzbek tilining oʻziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Oʻzbek tilidagi "hamisha" soʻzi fors tilidan oʻzlashganligini hisobga olsak, bu ikki tilning leksik darajadagi aloqasi ravish kategoriyasida ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Oʻzbek tilidagi –da kelishigi oʻrin-payt munosabatlarini ifodalashning asosiy morfologik vositasi boʻlib xizmat qiladi.

“Ravish + ravish” birikmasi bilan ifodalangan payt ravishi

“Ravish + ravish” birikmasi bilan ifodalangan payt ravishlari harakat yoki holatni sodir boʻlish paytini yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

تا چشمانمرا باز کردم، یادم افتاد که نتایجرا امروز صبح اعلام می کنند

Koʻzlarimni ochishim bilanoq, natijalarni bugun ertalab eʼlon qilinishini esimga tushdi.

Oʻzbek tili: Kecha kechqurun doʻstim kutilmagan xabar yubordi.

Fors tilidagi امروز صبح kabi ravish + ravish birikmasi o‘zbek tilidagi bugun ertalab, kecha kechqurun kabi ikki ravishning yonma-yon kelishi bilan to‘liq mos tushadi. Har ikki tilda ham ikki ravish birikib, paytni yanada aniqroq ifodalaydi. Struktur jihatdan ikki til o‘rtasida farq kuzatilmaydi.

“**بعد از + infinitiv + ot**” birikmasi bilan ifodalangan payt ravishi

بعد از شستن دست و صورتم و خوردن صبحانه فرید چمدان ها را پایین برد و حساب هتل را تصفیه کرد.

Yuz-qo‘limni yuvib, nonushta qilib bo‘lganimdan keyin, Farid chamadonlarni pastga olib tushdi va mehmonxona haqqini to‘ladi.

O‘zbek tili: Darsni tugatib, uyga qaytganimdan keyin kitob o‘qidim.

Fors tilidagi بعد از + infinitiv + ot birikmasi o‘zbek tilidagi ravishdosh shakli (-ib) yoki harakat nomi + -dan keyin konstruktsiyasiga mos keladi. Fors tilida infinitiv بعد از bilan birikib payt ifodalasa, o‘zbek tilida alohida ko‘makchisiz ravishdosh shakli (-ib, -gandan keyin) qo‘llanadi. Bu ikki tilning grammatik tizimidagi asosiy farqni ko‘rsatadi.

“**در + son + ot**” birikmasi bilan ifodalangan o‘rin ravishi

فرید صبح ها هم در یک درمانگاه مریض ویزیت می کرد

Farid ertalablari ham bir shifoxonada bemor qabul qilar edi.

O‘zbek tilida: Biz talabalik paytimizda 3 dugona bir xonada turar edik. Bir xonada-
Son + Ot + Kelishik (-da)

“**پشت + ot**” birikmasi bilan ifodalangan o‘rin ravishi

مادرم پشت در ایستاده بود

Onam eshik orqasida turgan edilar.

پشت old ko‘makchisi "orqasida(ga)", "ketida(ga)", "narigi tarafida(ga)" ma‘nolarini bildiradi. Bu ko‘makchi bilan ifodalangan o‘rin hollari predmet o‘rni, harakat-holat yo‘nalish o‘rnini ko‘rsatib keladi va qayerga?, qayerda? savollariga javob bo‘ladi.

O‘zbek tili: Bola daraxt orqasida yashirinib o‘tirdi.

Fors tilidagi پشت + ot birikmasi o‘zbek tilidagi ot + orqasida/ketida konstruktsiyasiga to‘liq mos keladi. Fors tilida o‘rin ma‘nosi پشت izofiy old ko‘makchisi orqali ifodalansa, o‘zbek tilida bu ma‘no otga -ning orqasida yoki bevosita orqasida so‘zi qo‘shilishi orqali ifodalanadi

Ikki tilning ravish sistemasini qiyosiy o‘rganish bir qator umumiy xususiyatlarni va tubdan farqlarni ochib berdi. O‘xshashliklar qatorida, avvalo, leksik qatlamni ko‘rsatish mumkin: o‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan hamisha, albatta, hatto, darhol, faqat kabi ravishlar hozir ham ikkala tilda faol qo‘llanadi va ularning struktur shakli ham deyarli bir xil saqlangan.

Farqlar asosan morfologik va sintaktik darajalarda namoyon bo‘ladi. Fors tili analitik grammatik qurilishga ko‘proq moyil bo‘lib, ravishlarni ko‘pincha old ko‘makchilar (dar, be, az, ta) yordamida ifodalaydi. O‘zbek tili esa agglutinativ til sifatida ravish ma‘nolarini asosan kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchi so‘zlar orqali bildiradi. Masalan, fors tilidagi سرعتبه (be sur‘at – tez) konstruktsiyasi o‘zbek tilidagi tezlik bilan yoki tez ravishda ifodalariga to‘g‘ri keladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, fors va o‘zbek tillarida yo‘nalish va o‘rin-payt ma‘noli ravishlarning struktur xususiyatlari bir-biridan farqlanuvchi, ammo funksional jihatdan parallel tizimlarni tashkil etadi. Fors tilida analitik usullar (old ko‘makchilar, izofiy konstruktsiyalar) yetakchi o‘rin tutsa, o‘zbek tilida sintetik usullar (kelishik qo‘shimchalari, agglutinatsiya) ustunlik qiladi.

Leksik darajada esa ikki til o‘rtasidagi tarixiy aloqalar ravish kategoriyasida ham yaqqol ko‘rinadi. O‘zbek tilidagi fors o‘zlashmalarining grammatik moslashish jarayoni alohida qiziqish uyg‘otadi: o‘zlashgan ravishlar o‘zbek tili grammatik tizimiga moslashib,

ba'zan o'zbek tili o'z qo'shimchalarini qabul qilgan. Masalan, hamisha so'zidan hamishagi sifati yasalishi buning yorqin misoli hisoblanadi.

Kelajakda ushbu mavzu doirasida fors va o'zbek tillarining ravish kategoriyasi bo'yicha keng ko'lamlı korpus tadqiqotlari o'tkazish, shuningdek, oraliq tillar (forsiy ta'sirida shakllangan o'rta asrlar o'zbek yozuvi) materiallarini ham jalb etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu tadqiqot ikkala tilni o'rganuvchilar uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1987. – 352 b.
2. Hojiyev A. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – 416 b.
3. Lambton A.K.S. Persian Grammar. – Cambridge: Cambridge University Press, 1974. – 286 p.
4. Lazard G. A Grammar of Contemporary Persian. – Costa Mesa: Mazda Publishers, 1992. – 231 p.
5. Mahootian S. Persian. – London: Routledge, 1997. – 315 p.
6. Mahmudov N. O'zbek va eron tillari leksik aloqalari. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 2002. – 178 b.
7. Mirtojdiyev M. O'zbek tilida so'z yasalishi. – Toshkent: Fan, 2007. – 224 b.
8. Рубинчик Ю. А. Грамматика современного персидского литературного языка. – Москва: Восточная литература, 2001. – 600 с.
9. Расторгуева В. С. Краткий очерк грамматики персидского языка. – Москва: МГИМО, 1964. – 164 с.
10. Shermatov A. O'zbek tili qiyosiy grammatikasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2015. – 288 b.